Aytaylik, biz ham ushbu texnologiya imkoniyatlaridan foydalanib yalpi ishki mahsulotimiz uchun qo‘shimcha qiymat kirita olamizmi. Yurtimizda sun‘iy intellekt sohasini rivojlantirishga, ushbu sohani davlat boshqaruvi va iqtisodiyotimizga keng joriy etish bo‘yicha qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Ushbu loyihalarni amalga oshirishda ma’lum qiyinchiliklar bo‘lishi tabiiy. Misol uchun nutqni tanib oluvchi dasturlar, yoki chatbotlar misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak. Bunday loyihalarni amalga oshirish uchun hozirgi kunda bizda hech qanday ma’lumot to‘plamlari mavjud emas. Yurtimizda yangi ish boshlagan bir necha startup loyihalar ham ushbu ma’lumotlarni ko‘ngillilar yordamida yig‘ib olmoqdalar. Bunday usulda albatta katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish uchun ko‘p vaqt yoki mablag‘ sarf etilishi mumkin. Bu o‘z navbatida startup loyihalarga katta qiyinchiliklar tug‘diradi va soha rivojini ortga suraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ««Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6079-son Farmoni. 2020 yil 5 oktyabr.

“How do you train artificial intelligence?”. May 19, 2021, <https://www.telusinternational.com/insights/ai-data/article/how-to-train-ai>

2. Пилецкая, А. В. Искусственный интеллект и большие данные / А. В. Пилецкая. — Молодой ученый. — 2019. — № 50 (288). — С. 20-22. — <<https://moluch.ru/archive/288/65241/>>



PYTHON DASTURLASH TILI VA UNING IMKONIYATLARI

Egamberdiyeva Nasiba Shavkat qizi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Qarshi filiali Kompyuter injineri mutaxassisligi

2 bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya: Dasturlashni o'rganuvchilar hamda ilmiy yoki amaliy maqsadlarni amalga oshirish uchun bu dasturlash tilini o'rganishi kerak. Ushbu maqolada Python dasturlash tili va uning imkoniyatlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: interpretatsiya, dastur, Python, o'ziga xoslik, kod, platforma, til.

Hozirgi jadal rivojlanish va turli jarayonlarni avtomatlashtirish hamda robotlashtirish davrida dasturlashni bilish va uni o'z ish jarayonida ishlata olish texnik va pedagogik yo'nalishda ta'lim olayotgan o'quvchi-talabalar uchun juda muhim deb hisoblanadi. Bu zamonaviy mutaxassislar uchun eng zaruriy talablardan biridir. Sababi hozirgi kunda informatika turli-tuman sohalarda muvaffaqiyatli ravishda qo'llanilishi mumkinligini hech kim ham rad eta olmaydi.

Python dasturlash tili samarador yuqori darajadagi ma'lumotlar tuzilmasini hamda oddiy, ammo samarador bo'lgan ob'yektga yo'naltirilgan dasturlash uslublarini taqdim etadi. Undan tashqari, bu til o'rganish uchun oson va shu bilan birga imkoniyatlari yuqori bo'lgan oz sonli dasturlash tillari jumlasiga kiradi va shu bilan birgalikda unda dasturlash jarayoni juda ham oddiy amalga oshiriladi. Python dasturlash tilining rasmiy sayti – www.python.org bo'lib, uning muallifi Niderlandiyadagi Matematika va informatika ilmiy adiqot institutida ishlagan *Gvido van Rossum* deb hisoblanadi. Pythonning o'ziga xosligi esa uning oddiyligi, o'rganishga osonligi, sodda sintaksisga egaligi va dasturlash jarayonini boshlash uchun qulay, erkin va ochiq kodlik dasturiy ta'minotga egaligidir.

Undan tashqari, o'z dasturingizni yozish davomida quyi darajadagi detallarni, misol uchun xotirani boshqarishni hisobga olishingizga hech qanday hojat qolmaydi. Bu dasturlash tili ko'plab platformalarda hech qanday o'zgartirishsiz ishlay oladi va u interpretatsiya qilinadigan tillar jumlasiga mansub. Bulardan tashqari, Python dasturlash tili imkoniyatlari kengayishga moyil bo'lgan dasturiy til hisoblanadi. Agar siz dasturingizning biror-bir joyini tezroq ishlashini xoxlasangiz, o'sha qismni C yoki C++ dasturlash tillarida yozib, keyin shu qismni Python kodingiz orqali ishga tushirsangiz (chaqirsangiz) bo'ladi. Bundan tashqari, Python juda ham ko'p, foydali hamda xilma-xil dasturlar kutubxonalarga egaligi ham juda muhimdir. Python dasturlash tili sodda va o'qilishi oddiy bo'lgan dasturlash tili bo'lib u inglizcha so'zlarni qo'llaydi va u PERL va PHP ga tillariga o'xshab ketadi. Python interaktiv dasturlash tili bo'lib, ob'ektga yo'naltirilgan tillar jumlasiga kiradi, ya'ni, Python ob'ektga yo'naltirish uslubini yoki dasturiy texnikasini qo'llab-quvvatlaydi. Python boshlovchi dasturchilar tilidir, ya'ni u boshlang'ich dasturchilar uchun ajoyib til bo'lib, oddiy matnni ishlashdan tortib, veb-brauzerlaridagi o'yinlarga qadar keng ko'lamdagi ilovalarni ishlab chiqishni qo'llab quvvatlaydi. Python ning buyruqlari va sintaksisi ABC, Modula-3, C, C++, Algol-68, SmallTalk va Unix shell kabi boshqa ko'plab tillardan va skript tillaridan olingan. Python mualliflik huquqi bilan himoyalangan. Xuddi Perl kabi, Python dagi manbaa kodi GNU General Public License (GPL) ostida mavjud.

Pythonning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

O'rganish oson: Python nisbatan kam sonli kalit so'zlar, oddiy tuzilish va aniq belgilangan sintaksisga ega;

- *Tushunish va o'qish oson:* Python kodi juda aniq va yodda qoladigan tarzda yoziladi;
- *Unda ishlash juda ham qulay:* Python ning muvaffaqiyati – manba kodining tuzilishi juda sodda va tushunarli;
- *Python kattagina standart kutubxonaga ega:* Python ning eng qudratli jihatlaridan biri kutubxonaning asosiy qismi juda portative va UNIX, Windows va Macintosh-da o'zaro faoliyat platformalar bilan mos keladi;
- *Interaktiv usulda ishlash imkoniyati mavjud:* Python da terminalda ishlash uchun juda qulay, natijalarni terminalda test qilib ko'rsa ham bo'ladi;
- *Bu til moslashuvchan hisoblanadi:* Python keng apparat platformalarida ishlaydi va barcha platformalarda bir xil interfeysga ega;



- *Kengaytirilish imkoniyatlariga ega*: Python tarjimoniga past darajadagi modullarni qo‘shishingiz mumkin;
- *Ma’lumotlar bazalari bilan ishlash qulayligi*: Python barcha ma’lumotlar bazasini qo‘llab quvvatlaydi;
- *GUI dasturlashni amalga oshirish imkoniyati*: Python Windows MFC, Unix, X Window kabi platformalarga GUI dasturlar tuzishni qo‘llab quvvatlaydi;
- *Moslashuvchanligi*: Python qobiq buyruq fayliga qaraganda, katta dasturlarga yanada yaxshi moslashish va ularni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi;
- *Funksional va tuzilgan dasturiy usullarni va Ob’ektga yo‘naltirilgan dasturlashni qo‘llab-quvvatlaydi*;
- *Buyruq fayli sifatida ishlatilishi mumkin* yoki katta ilovalar yaratish uchun byte-kodga to‘planishi mumkin;
- *Juda yuqori darajadagi dinamik ma’lumotlar turlari* va dinamik turdagi tekshiruvlarni qo‘llab-quvvatlaydi;
- Chiqindilarni avtomatik ravishda to‘plashni va ularni tozalashni qo‘llab-quvvatlaydi (*musorosborshik funksiyasi*);
- C, C++, Java va PHP kabi dasturlash tillari bilan osonlik bilan bog‘lanishi mumkin.

Python dasturlash tili boshqa tillarga nisbatan o‘rganish ancha oson va shu bilan birga imkoniyatlari boy bo‘lgan til hisoblanadi. Ya’ni, til o‘rganishni boshlovchilar uni osonlik bilan o‘rganishlari mumkin, shu bilan bu til yordamida ancha-muncha jiddiy amaliy loyihalarni ham amalga oshirish mumkin.

Python haqida quyidagi uchta xulosaga kelish mumkin:

1. Python dasturlash tilining keng miqyosda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan uch asosiy soha bor: veb-dasturlash (*backend – vebserver uchun ilovalar yozish*), sun’iy intellekt masalalari, kompyuterda foydalanuvchi juda ko‘p marta bajaradigan mayda ishlar (*elektron xatlarni jo‘natish, fayllarni izlash va bosmalash, elektron jadvaldan biror-bir ma’lumotlarni ajratib olish va xakozolar*).

2. Python o‘rganish ancha oson bo‘lgan dasturiy tildir. Agar tabiiy tillar bilan o‘xshatish qiladigan bo‘lsak, biror-bir tilda fikrni yetkazish uchun ma’lum vaqt so‘zlarni, tilning grammatikasi o‘rganish kerak bo‘ladi. Qandaydir minimal bilim shakllangandan so‘ng, asta-sekin inson o‘z fikrini ifoda eta boshlaydi. Dasturlash tillari bilan ham holat xuddi shunday. Biror dasturlash tilida amaliy foyda keltiradigan dastur yozishni boshlash uchun ma’lum bilimlar majmuini egallash kerak, shundan so‘nggina dasturlashni boshlash mumkin. Boshqa dasturlash tillaridan farqli ravishda, Python da amaliy ahamiyatga ega dasturlarni ishlab chiqishga ancha ertaroq, hali tilning katta qismini o‘rganmasdan turib ham kirishish mumkin.

3. Python interpretatsiya qilinadigan dasturiy til. Dasturlash tillarini interpretatsiya qilinadigan va kompilyatsiya qilinadigan dasturlash tillariga bo‘lishadi. Aniqroq aytganda, agar dasturlash tilidagi dasturni bajarish interpretatsiya orqali amalga oshirilsa, bunday tillar interpretatsiya qilanadigan til deyiladi. Agar dasturlash tilidagi dasturni bajarish uchun uni avval mashina tiliga o‘tkazish talab qilinsa, bunday tillar kompilyatsiya qilinadigan tillar deyiladi. Aslini olganda, kompyuter uchun yozilgan har qanday dastur interpretatsiya qilinadi. Chunki mashina kodlaridagi dastur kompyuterning miyasi bo‘lgan prosessor tomonidan interpretatsiya qilinadi. Interpretatsiya qilinadigan tillarda yozilgan dasturlar uchun maxsus – interpretator dastur mavjud. Bu interpretator dastur kodlarini bajarilishini ta’minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.A.Mengliyev va boshqalar. Python dasturlash tili. O‘quv qo‘llanma. Termiz 2021.
2. Toshboyeva G “Python dasturlash tili va uning imkoniyatlari bo‘yicha uslubiy qo‘llanma” Buxoro-2017.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Python>
4. www.dasturchi.uz
5. Internet materiallari.



KOMPYUTER TARMOQLARI VA UNING ASOSIY TURLARI

Sharopova Ra'no Qurbonboyevna
Chust tumani 1-sonli kasb-hunar
maktabi maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Hozirda hilma-hil zamonaviy kompyuterlar insonga holis hizmat qilmoqda. Ushbu maqolada kompyuter tarmoqlari va uning asosiy turlari, vazifalari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: kompyuter, tarmoq, texnika, axborot, tezlik, resurs, mahalliy tarmoq.

Axborotni bir kompyuterdan ikkinchi kompyuterga uzatish muammosi hisoblash texnikasi paydo bo'lgandan beri mavjuddir. Axborotlarni bunday uzatish alohida foydalanilayotgan kompyuterlarni birgalikda ishlashini tashkil qilish, bitta masalani bir necha kompyuter yordamida hal qilish imkoniyatlarini beradi. Bundan tashqari har bir kompyuterni ma'lum bir vazifani bajarishga ixtisoslashtirish va kompyuterlarning resurslaridan birgalikda foydalanish, hamda ko'pgina boshqa muammolarni ham hal qilish mumkin bo'ladi.

Oxirgi vaqtda axborotlarni almashish usullari va vositalarini ko'p turlari taklif qilinmoqda: eng oddiy fayllarni disklar yordamida kompyuterdan kompyuterga o'tkazishdan tortib, to butun dunyo kompyuterlarini birlashtira olish imkoniyatini beradigan Internet tarmog'igacha.

Ko'pincha “mahalliy tarmoqlar” (lokalniye seti, LAN, Local Area Network) atamasini aynan, katta bo'lmagan, mahalliy o'lchamli, yaqin joylashgan kompyuterlar ulangan tarmoq, ya'ni, mahalliy tarmoq deb tushiniladi. Lekin ba'zi mahalliy tarmoqlarning texnik ko'rsatgichlariga nazar solsak, bunday atama aniq emasligiga ishonch hosil qilish mumkin. Misol uchun, ba'zi bir lokal tarmoqlar bir necha kilometr yoki bir necha o'n kilometr masofadan oson aloqani ta'minlay olish imkonini beradi. Bu hol esa, bir xonaning, bir binoning yoki bir-biriga yaqin joylashgan binolarninggina emas, balki bir shahar doirasidagi o'lchamdir. Boshqa bir tomondan olib qaraganimizda global tarmoq orqali (WAN, Wide Area Network yoki GAN, Global Area Network) bir xonada joylashgan ikki yonma-yon stoldagi kompyuterlar ham axborot almashinuvini amalga oshirishi mumkin, lekin negadir bunday tashkil qilingan tarmoqni hech kim mahalliy tarmoq deb atamaydi. Ikkita yaqin joylashgan kompyuterlarni interfeys orqali (RS232, Centronics) kabel yordamida bog'lash mumkin, yoki hatto kabelsiz infraqizil kanal yordamida ham kompyuterlarni bog'lash mumkin. Lekin bunday bog'lanish ham mahalliy tarmoq deb atalmaydi. Balki, mahalliy tarmoq ta'rifi xuddi kichik tarmoq kabi bo'lib, ko'p bo'lmagan kompyuterlarni bog'lashdir. Haqiqatdan, mahalliy tarmoq ko'p hollarda ikkitadan to bir necha o'nlab kompyuterlarni o'z tarkibiga oladi. Lekin, ba'zi bir mahalliy tarmoqlarning cheklangan imkoniyatlari ancha yuqori bo'lib, abonentlarning soni mingtagacha yetishi mumkin. Bunday tarmoqni kichik tarmoq deb atash balki noto'g'ridir.

Ba'zi mualliflar mahalliy tarmoqni «ko'p kompyuterlarni uzviy bog'lovchi tizim» deb ta'riflashadi. Bu holda axborot kompyuterlardan kompyuterlarga vositachisiz va bir turdagi uzatish muhiti orqali amalga oshiriladi deb faraz qilinadi. Biroq hozirgi zamon mahalliy tarmoqlarida bir turdagi uzatish muhiti haqida gap yuritib bo'lmaydi. Misol uchun, bir tarmoq doirasida har turdagi elektr kabellari va shuningdek shisha tolali kabellar ham ishlatilishi mumkin. Axborot uzatishni «vositachisiz» ta'rifi ham juda aniq emas, chunki hozirgi zamon mahalliy tarmoqlarida turli konsentrator, kommutator, yo'naltirgichlar marshrutizatori) va ko'priklardan (mosti) foydalaniladi. Axborotlarni uzatish jarayonida uzatilayotgan axborotlarga murakkab ishlov beruvchi bu vositalarni vositachi deb qabul qilinadimi yoki yo'qmi?, unchalik tushunarli emas. Balki, foydalanuvchilar aloqa mavjudligini his qilmaydigan tarmoqni mahalliy tarmoq deb qabul qilinishi aniq bo'lar. Mahalliy tarmoqqa ulangan kompyuterlar bir virtual kompyuter kabidir, ularning resurslari hamma foydalanuvchilar uchun bemalol bo'lishi kerak bo'lib, alohida olingan kompyuter resurslaridan foydalanishdan kam qulay bo'lmasligi lozim. Bu holda qulaylik deb birinchi navbatda aniq yuqori tezlikda resurslarga ega bo'lish, ilovalar orasidagi axborot almashinuvini foydalanuvchi sezmaganda holda amalga oshirilishidir.

Bunday ta'rifda sekin ishlovchi global tarmoq ham, keskin amalga oshiriladigan ketma-ket yoki parallel portlar ham mahalliy tarmoq tushunchasiga to'g'ri kelmaydi. Bunday ta'rifdan kelib chiqadiki, keng tarqalgan kompyuterlarning tezligi oshishi bilan, mahalliy tarmoq orqali uzatiladigan axborot tezligi ham albatta oshishi kerak. Agar yaqin o'tmishda axborot almashinish



tezligi 1 – 10 Mbit/s yetarli deb hisoblangan bo'lsa, hozirda esa o'rtacha tezlikdagi tarmoq 100 Mbit/s tezlikda axborot uzata oluvchi tarmoq hisoblanadi. 1000 Mbit/s va undan ham ortiq tezlikda axborot uzata oluvchi vositalar ustida ham aktiv ish olib borilmoqda. Kam tezlikda aloqa o'rnatish esa tarmoq shaklida ulangan virtual kompyuterining ishlash tezligini pasaytiradi.

Shunday qilib, mahalliy tarmoqlarni boshqa har qanday tarmoqdan asosiy farqi – yuqori tezlikda axborot almashinuvidir. Lekin bu birgina farq bo'lib qolmay, boshqa omillar ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, axborotlarni uzatishda xatolikni keskin kamaytirish lozim. Juda tez, lekin xato axborot uzatish bema'nilikdir, chunki uni yana qaytadan uzatish kerak bo'ladi va shuning uchun mahalliy tarmoqlarda albatta maxsus yuqori sifatli aloqa vositalaridan foydalaniladi. Yana tarmoqning asosiy texnik ko'rsatgichlaridan biri katta yuklamada ishlash imkoniyatidir, ya'ni axborot almashish tezligi (yana boshqacha qilib aytganda, katta trafik bilan). Tarmoqda qo'llanilayotgan axborot almashinuvini boshqaruvchi mexanizm unumli bo'lmasa, u holda kompyuterlar axborot uzatish uchun ko'p vaqt navbat kutib qolishi mumkin. Navbat kelganidan so'ng katta tezlikda va bexato axborot uzatilsa ham, tarmoqdan foydalanuvchiga baribir tarmoq resurslaridan foydalanish uchun ma'lum vaqt kutishga to'g'ri keladi.

Har qanday axborot uzatishni boshqarish mexanizmi kafolatlangan ravishda ishlashi uchun, oldindan tarmoqqa ulanishi mumkin bo'lgan kompyuterlar, axborotlar soni ma'lum bo'lishi kerak. Rejalashtirilganidan ko'p kompyuterlarni tarmoqqa ulanishi, yuklamaning oshishiga olib kelishi natijasida har qanday mexanizm ham axborotlarni uzatishga ulgura olmay qolishi tabiiydir. Nihoyatda, tarmoq deb bu so'zning tub ma'nosi kabi, shunday axborot uzatish tizimini tushunish kerakki, u mahalliy bir-necha o'nlab kompyuterlarni birlashtirgan bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M., Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma – T.: “Noshir”, 2009y.
2. T.S.Safarov. Informatika va axborot texnologiyalari Toshkent 2006y.
3. O.O.Hoshimov, M.M.Tulyaganov. Kompyuterli va raqamli texnologiyalar.



ISHLAB CHIQUARISH QURILMA VA MASHINALARIDA ELEKTR ENERGIYANI PASSIV IQTISOD QILISH

Хамраев Оғабек Ойбек оғли

Urganch davlat universiteti Texnika fakulteti
Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr
texnologiyalari ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi
E-mail: ogabekxamrayev678@gmail.com
Telefon: +99891 277 47 27

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda energetika sohasida ishlab chiqarish qurilma va mashinalarida elektr energiyasini har tamonlama iqtisod qilish muhim ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Avtomatlashtirish, fan-texnika, mashinasozlik, energetika, innovatsion, passiv, ishlab chiqarish.

Ishlab chiqarish qurilma va mashinalarida elektr energiyani passiv iqtisod qilish tushunchasi bu – elektr yuritmalari uchun qo'shimcha sarmoyalar sarf qilmasdan elektr energiyadan samarali foydalanish demakdir. Bunday iqtisod qilishni turlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

Elektr tarmog'idan iste'molchilarga uzatilayotgan elektr energiya ko'rsatkichlarining Davlat standartlariga mos bo'lishi, quvvat bo'yicha to'g'ri tanlangan elektr motorlarini energiya tejamkorlik rejimiga juda yaqin rejimda ishlashi imkonini yaratadi. Shuni e'tirof etish kerakki, hozirgi paytga kelib kuchlanish, chastota, amplituda va h.k. ko'rsatkichlarning ruxsat etilgan qiymatlari energiya tejamkorlik nuqtai nazaridan zamon talablariga mos kelmay qolgan va bu sohada yangi Davlat standartlari qabul qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ishlab chiqarish qurilma va mashinalarning elektr motorlarini quvvati bo'yicha to'g'ri va ishlab chiqarish sharoitiga mos keluvchi elektr motorlar tanlash energiya tejamkorlik nuqtai nazaridan muhim masaladir. Tanlangan motomi ishlatishda yuqori FIK da bo'lishiga erishish maqsad qilib qo'yilgan bo'lishi kerak. Motoming yuklanish momenti va mexanik tavsifi asosiy mezon hisoblanadi.

Yuklanishning turg'un momenti motorda turg'un issiqlik rejimini yuzaga keltiradi. Motor pasportida keltirilgan nominal quvvat motorning ruxsat etilgan darajada qizishini ta'minlaydi va qoplanilgan izolyatsiya sinfiga to'g'ri keladigan haroratdan oshib ketmasdan uzoq muddat ishlashini kafolatlaydi. Motordagi quvvat isrofi natijasida hosil bo'ladigan turg'un qiziganlik darajasi uning ishlash muddatiga albatta ta'sir qilmaydi.

Biroq motor pasportidagi quvvat ishlab chiqarish qurilmasi yoki mashinasining yuklanish quvvatiga hamisha ham mos kelavermaydi. NEMA standartlari bo'yicha himoyalangan motorlar uchun nominal yuklanganlik koeffitsiyenti 1,15 ga tengdir, ya'ni qisqa muddatga motorlarni shuncha marta ortiq quvvatli rejimda ishlatishga ruxsat etiladi. Motorning qizishi esa ruxsat etilgan haroratdan oshmaydi. Bu esa iste'molchiga iqtisodiy nuqtai nazardan ma'qul motor tanlash imkonini beradi. Motorning yuklanganlik koeffitsiyentidan to'g'ri foydalanilganda narxi pastroq bo'lgan motomi qo'llab ham elektr energiyadan iqtisod qilish mumkin. Har soatda motordagi yuklanishning nominalga nisbatan 15% oshishi uning ishlash muddatini 2-3 soatga qisqartiradi. Shuning uchun bunday yuklanganlikda motorning ishlab chiqarish rejimi qisqa muddatli bo'lgandagina samara beradi. Bunday rejim odatda metall kesuvchi dastgohlarining elektr jihozlarida va kesgich yuritmalarga xosdir. Harakatga keltirilayotgan mexanizmning inersiya momenti katta bo'lsa elektr yuritma motori o'tish jarayonining cho'zilib ketishiga olib keladi (10 sekunddan ko'p). Shunda motor chulg'amlaridan katta qiymatdagi tok o'tishi motorning qizib ketishiga sabab bo'ladi. Bunday elektr yuritmalarda ishga tushirish momenti yuqori bo'lgan motorlarni qo'llash maqsadga muvofiq keladi.

Agar motoming yuklanganligi nominal quvvatiga nisbatan 45% dan kam bo'lsa, u holda nominal quvvati kamroq quvvatlisiga almashtirish hamma vaqt ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Motorning yuklanganligi nominal quvvatiga nisbatan 70% dan yuqori bo'lsa, u holda motor quvvatining tanlanishi to'g'ridir. Motorning yuklanganligi 45-70% oraliqda bo'lsa, motorni almashtirish yoki almashtirmaslik motordagi quvvat isrofi tahlili asosida amalga oshiriladi.

Elektr motorlarni ishlatish jarayonida uning aylanuvchi qismlarining (rotor va yakor) uzoq vaqt



normal ishlashi uchun podshipniklari mos moylar bilan vaqtida moylab turish va motor korpusi qovurg'alarini va ular orasidagi ariqchalarni tozalab turish hamda korpus yuzasini issiqlik uzatishni jadallashtirish maqsadida mos rangli bo'yoqda bo'yash ham motorlarning ishlash muddatida mexanik energiya isrofini kamaytirish va ishlash muddatini uzaytirishga olib keladi.

Elektr motorlardagi sovutish jarayonini jadallashtirish maqsadida termosifonlarning qo'llanilishi ushbu motorlarning quvvatidan to'liqroq foydalanish imkonini beradi.

Energiya tejamkor motorlarning yuklanishi o'zgarishining keng diapazonida (0,5 - 1,0) va quvvat va foydali ish koeffitsiyentlari nominalga teng bo'lib deyarli o'zgarmay turishi sababli bunday motorlarning elektr yuritmalarida qo'llanilishi yuqori samara beradi. Garchi bunday motorlarning tannarxi oddiy motorlarning tannarxiga nisbatan bir muncha yuqori bo'lsa ham ishlatish jarayonida energetik ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishi bilan va iqtisod qilgan elektr energiya hisobiga o'zini to'liq oqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, elektr energiyani aktiv iqtisod qilish passiv iqtisod qilishdan farqi shundaki, bu jarayon qo'shimcha texnik vosita va moslamalar yordamida ishlab chiqarish qurilma va mashinalarda elektr energiyadan yanada samarali foydalanish imkonini yaratishdan iboratdir. O'z navbatida elektr energiyadan aktiv iqtisod qilish elektr yuritmalardagi yuklanishlarini rostlash, optimal boshqarish va salt yurishni chegaralash kabi vazifalarni qo'shimcha texnik vositalar yordamida bajarishga bo'linadi. Bundan tashqari ishlab chiqarish qurilma va mashinalarning tezligi rostlanmaydigan elektr yuritmalarini tezliklari rostlanuvchi elektr yuritmalar bilan almashtirish elektr energiyani aktiv iqtisod qilish asosini tashkil etadi. Tezligi rostlanadigan va rostlanmaydigan elektr yuritmalarning energetik ko'rsatkichlari yuklanganlik darajasiga qarab optimallashtiruvchi texnik vositalar yordamida elektr energiyani iqtisod qilish alohida bir yo'nalish bo'lib, bu sohada keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Mavjud ishlab turgan motorlarni energiya tejamkor motorlarga almashtirilib, elektr yuritmaning boshqaruv qismini o'zgartirmagan holda ishlatish natijasida energiya tejash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O.O.Hoshimov., A.T.Imomnazarov., Elektr mexanik tizimlarda energiya tejamkorligi. Toshkent – 2015.
2. Баламетов А.Б., Мусаханова Г.С., Халилов Э.Д. Исследование решения задачи оптимизации режимов электрических сетей по напряжению и реактивной мощности методом последовательной линеаризации и линейного программирования. Электричество. 2003. №3.
3. Бобожонов Ю., Хазратов И. Замонавий ва энерготежамкор тиристорли реактив кувват компенсаторларининг электр энергия исрофларини камайтиришдаги ва энергия ишлаб чиқаришдаги аҳамияти. Фан ва технологиялар Тараққиёти. Илмий – техникавий журнал, 2020. №6. 107-111 б.
4. Бурков А.Т., Мирсаитов М.М. Режимы электротяговой сети при эксплуатации электровозов ВЛ-80Р и УТЙ-1, Известия ПГУПС, 2016. №2. 146-160 стр.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 16-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2023

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000